

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

Son 2. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 2(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна
 ЎЗБЕК ВА ТОЖИК АНЪНАВИЙ ТАОМЛАРИДА ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ АКС
 ЭТИШИ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА) 10-15

Umarov Sardor Yakubovich
 QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI,
 DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR 16-20

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Shadiyeva Gulnora Mardiyevna
 O'ZBEKİSTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH
 YO'LLARI 21-29

Халилдинов Азизбек Абдуқаҳхоровиҷ
 КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ
 БОШҚАРИШГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР 30-34

Мавлянов Мажид, Урдушев Ҳамракуլ
 КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ: ЧОРВАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ 35-45

Асроров Азизбек Исомиддин угли
 ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РИСКОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
 КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 46-52

Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi, Achilboyeva Sevinch O'tkir qizi
 MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI HISOBI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI. 53-60

Камалов Ақмал Сайдакбаровиҷ
 ХАЛҚАРО ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ЭҲТИМОЛЛИГИНИНГ
 ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАҲСИРИНИ БАҲОЛАШ
 УСЛУБИЯТИ ИШЛАБ ЧИҚИШ 61-68

Namazov Gafur Shokulovich
 IQTISODIYOTDA GIBRID MODELLARNI QO'LLASH 69-75

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Rasulov Azizkhon Mukhammadqodirovich
 YANGI O'ZBEKİSTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O'ZGARISHI 76-81

Kadirova Ziyoda Rahimjanovna
 ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI 82-86

Turdiyev Bexruz Sobirovich
 JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI 87-92

Alimatova Nargis Abdusalilovna
 KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI 93-98

Abdullahayev Ibodulla Abdullayevich, Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi
 MA'NAVIYAT – YANGI O'ZBEKİSTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR..... 99-103

<i>Кувандиков Шокир Облоқулович</i> МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ МИЛЛИЙ-МАҶНАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ МАНБАЛАРИ	104-111
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR MAFKURAVIY ONGI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR	112-119
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> BADIY MUHITDA TANQIDIYLIK VA SATIRANING TABIIY KOMMUNIKATSIYASI	120-125
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Saitova Nilufar Djumaydillayevna</i> YOSH O'ZBEK SHOIRLARI: VOQELIKNI IDROK ETISH VA UNI BADIY IFODALASH TENDENSIYALARI	126-130
<i>Nurmanov Furqat Xayitqulovich</i> O'G'UZ" ETNONIMI VA O'G'UZLAR	131-137
<i>Qudratova Sitora Olimovna</i> AQSH HIKOYACHILIGI TARIXI VA SPETSIFIKASINING BADIY IFODASI HAMDA JANR IJODKORLARI	138-148
<i>Fayziyeva Aziza Anvarovna, Safarova Nigora Axatovna</i> METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV	149-153
<i>Qodirova Madinabonus Murodjon qizi</i> LINGVISTIK TA'MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI	154-159
<i>Аллабердиева Регина, Мадалов Навруз</i> ТАКСОНОМИЯ ГЕНДЕРНО-МАРКИРОВАННЫХ ПАРЕМИЙ - РЕГУЛЯТИВОВ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ	160-165
<i>Azimova Aziza Alisher qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKALARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI	166-172
<i>Shoymardonov Ilhom Alixonovich</i> BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG'LIQ BOLALAR QO'SHIQLARI	173-178
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI....	179-184
<i>Mirzayev Jasur, Madalov Navruz</i> THE DIALOGIC NATURE OF PERSONIFICATION IN THE POETICS OF WILLIAM BLAKE	185-190
<i>Yuan Xiaowei</i> ON THE TITLE AND LEXICAL FEATURES OF THE WINTER OLYMPICS NEWS REPORT IN CHINA DAILY	191-197
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ражабов Нариман Шарифбаевич</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОБРОВОЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	198-206
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLIK	

HUQUQI OBYEKTALARIDAN FOYDALANUVCHI SHAXSLAR O'RTASIDAGI SHARTNOMALAR TASNIFI..... 207-212

Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li

TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 213-220

Раимова Шохсанам Ғайратжоновна

РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЛАР ВА УЛАННИГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ 221-227

Mukumov Bobur

CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AT THE INTERNATIONAL LEVEL..... 228-234

Нодирахон Абдурахманова

ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН, СМАРТ-КОНТРАКТОВ И КРИПТОВАЛЮТ НА РАЗВИТИЕ ПРАВА..... 235-239

Акмалхонов Боситхон Азизхон ўғли

ЗАЩИТА ПРАВА ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ПРАКТИКЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА..... 240-246

Turakulova Nazira

MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOVIY BOSHQARISH 247-260

Якубов Бекзод Эркинбаевич

КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ҲОЛЛАРДА ТЕЗКОР – ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ..... 261-265

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Mamajonov Yoshimjon Abdumalikovich

FIZIKA FANINI IJODIY O'ZLASHTIRISH YO'LLARI (AKADEMIK LITSEYLAR MISOLIDA) 266-271

Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna

O'ZBEKİSTON OLİY O'QUV YURTЛАRIDA İSPAN TİLİ BO'YICHA İJTİMOİY-MADANIY KOMPETENTLİKNI O'QITISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH 272-281

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI..... 282-287

Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 288-291

Omonqulov Ulug'bek Maxsiddin o'g'li

IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI..... 292-296

Jumaboev Nabi Pardaboevich

THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM 297-304

Kayumov Erkin Kazakbayevich

TASVIRIY SAN'ATNING O'QUVCHILAR IDROKI VA IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI 305-310

<i>Yusupova Feruza Hajiboyevna, Gaipova Nilufar Jasurbekovna</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNG EKOLOGIK TA'LIM BERISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARNING ROLI	311-317
<i>Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna</i> SOMONIYLAR DAVRI SAN'ATI VA UNING JAHON TARIXIDAGI ROLI.....	318-322

Shoymardonov Ilhom Alixonovich
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG'LIQ BOLALAR QO'SHIQLARI

Annatatsiya. Ushbu maqolada Surxon vohasi bolalar folklori haqida ko'plab ma'lumotlar berib o'tilgan. Surxon bolalar folklori hududiy-lokal xususiyatlari ko'ra areal jihatdan alohida yaxlit badiiy tizim ekani, uning umumo'zbek folklori an'analari bilan mushtarak va o'ziga xos jihatlari ochilgan.

Kalit so'zlar: Bahor, yoz, kuz mavsumlari bilan bog'liq bunday qo'shiqlar, "Boychechak", "Yo ramazon", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Qo'zichoq", Qarg'a, musicha, bedana, to'rg'ay, qaldirg'och, laylak va boshqa qushlar.

Shoymardonov Ilhom Alikhonovich
Teacher of Termiz State University

CHILDREN'S SONGS ABOUT SPRING, SUMMER, FALL SEASONS

Abstract. This article provides a lot of information about children's folklore of Surkhan oasis. According to regional and local features, Surkhan children's folklore is a unique artistic system in terms of area, and its common and unique aspects with the traditions of all-Uzbek folklore have been revealed.

Keywords: Such songs related to the seasons of spring, summer, autumn, "Boychechak", "Yo Ramadan", "Stork came, summer has come", "Lamb", Crow, musicha, quail, to' swallow, stork and other birds.

Шоймардонов Илҳом Алихонович
Преподаватель Термезского государственного университета

ДЕТСКИЕ ПЕСЕНКИ ПРО ВЕСНУ, ЛЕТО, ОСЕНЬ ВРЕМЕНА ГОДА

Аннотация. В данной статье представлено много информации о детском фольклоре Сурханского оазиса. По региональным и местным особенностям детский фольклор Сурхана представляет собой уникальную по площади художественную систему, выявлены его общие и уникальные аспекты с традициями общеузбекского фольклора.

Ключевые слова: Такие песни относились к временам года весна, лето, осень: «Бойчечак», «Йо Рамадан», «Аист пришел, лето пришло», «Баран», «Ворона, музуха, перепелка, ласточка, аист и другие птицы».

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N25>

Bolalar yoshligidanoq o'yinlarga ko'nikma hosil qiladilar va bundan o'zlariga estetik zavq oladilar, uning yordamida aqliy va jismoniy kamolotga erisha boradilar. Shu jarayonda ularning tevarak-atrofga, tabiat hodisalariga, undagi mavsumiy o'zgarishlarga munosabati ham ko'rina boradi. Kattalar esa bolalarning tabiatga munosabatlarini shakllantirishda faol ishtirot etadilar. Buning natijasida bolalarning o'z taqvimi va uni ifoda etuvchi mavsum marosim qo'shiqlari yuzaga kelgan. Bahor, yoz, kuz mavsumlari bilan bog'liq bunday qo'shiqlarning bir

qismi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot taqozosiga ko'ra, kattalar repertuaridagi mavqeyini yo'qota borib, yo tamomila so'nib ketgan, yoki o'zgarishlarga uchrab, bolalar repertuarida saqlanib qolgan. "Boychechak", "Yo ramazon" va hayitliklar-bayram qo'shiqlari shular jumlasidandir.

Surxon bolalaridan yozib olganimiz "ramazon" qo'shiqlaridan birida shunday misralar uchraydi:

Assalomu alaykum bizlar keldik,
Amazon oyini boshlab keldik.
O'choqda kul, cho'ntakda pul,
Chiqara qoling ming so'm pul.
Ming so'm pulning bog'i bor,
Bog'ida anori bor.
Anorining ichida,
Shaqir-shuqur puli bor.
Uyining boshida oy ko'rdik,
Hammadan sizni boy ko'rdik.
Amazon aytib keldik biz sizga,
Kimlar kelib ketmaydi eshigingizga.
Yangi yil, yanagi kun xudoyim
Qo'chqorday o'g'il bersin beshigingizga.[1]

Folklorshunoslar V.M.Jirmunskiy, H.Zaripov, M.Alaviya, G'Jahongirov, O.Safarov, M.Jo'raev, Sh.Turdimov, Sh.Turg'unovlar tomonidan ba'zi hududlarda saqlanib qolgan bolalar mavsumiy qo'shiqlari yozib olinib, avloddan-avlodga o'tib kelishiga hissa qo'shilgan.

Turli fasllarga aloqador, suv yoki yomg'ir, qor yog'ishini tilash, kamalakni alqash jarayonlari bolalar qo'shiqlarida ham aks ettirilgan. Gullar, o'simliklar, hayvonlar, hasharotlar, qushlarga murojaatdan yoki ularni tasvirlovchi yo tavsiflovchi bolalar qo'shiqlari ham xilmoxildir. Ular juda ko'p variantlarda tarqalgan.

Xalq qo'shiqlarining tarkibiy qismini tashkil qiluvchi bolalar qo'shiqlari ko'pincha yil fasllariga, qush va hayvonlarga, tabiatdagi o'zgarishlarga bag'ishlangan bo'lib, mazkur narsalar va vatan manzaralariga nisbatan munosabatlarning badiiy ifodasi sifatida baholanadi. Turnalarning uchib kelishini ta'kidlovchi bolalar qo'shiqlari ham mavjud:

Bulutlarning bag'rige
Arg'imchoqlar tizishib,
So'ng ne o'y-xayol bilan
Uni yana uzishib,
Uchib o'tar turnalar
Vodiylarning ustidan.
Baland uchgan turnalar,
Ko'nglim ochay sizga-yo.
Armonda bag'rim yonar,
Etolmadim shu qizga-yo.
Baland uchgan turnalar,
Ko'nglim ochay sizga-yo.
Armonda bag'rim yonar,
Etolmadim sizlarga-yo, turnalar!

Bizningcha, bu qo'shiq kattalar tilidan yaratilib, bolalar repertuariga ko'chgan. Chunki unda oshiq armoni aks etmoqda.

Qarg'a sayrab, "qag" deydi,
Mening vaqtim chog' deydi.
Sayrar joyim so'rasang,
Qor qoplagan tog' deydi.
Qarg'a sayrab "qag" deydi,
Doim vaqtim chog' deydi.
Mehmon kelar uyingga,
Ko'rpachangni qoq deydi.

Og'zaki va yozma matnda badiiy tasvir vositalari ko'pincha birgalikda keladi. Bu so'zlovchining nutqini ta'sirchan etish mahorati va notiqlik qobiliyatiga ko'ra yuz beradi. Yuqoridagi misolda anaforik va epiforik takrorlardan tashqari allegoriya hodisasi ham mavjuddir. Allegoriyada jonivorlar insonlar kabi harakatga keladi, insonlar singari gapiradi. Bolalar esa asosiy e'tiborni shu hayvonlar orqali tasvirlanayotgan inson obraziga (kishilarga) qaratadi. Bu asosan yozma badiiy adabiyotda amal qiladi. Masallarda allegorik obrazlar harakat qiladi. Bolalar folklorida ham yuqoridagi misolda ko'ringani kabi allegorik tasvir xususiyatlari mavjuddir. Bunda qarg'a inson kabi gapirayotgandek tasvir qilingan. Bu erda ham qarg'a poetik tasvirga olinib, o'z kayfiyatini chog' qilib yuruvchi kishilar turmush tarziga ishora qiladi. Shu bilan birga, saranjom-sarishtalikka e'tibor beruvchilarning holidan kulib, tanqidiy mulohaza bildiradi. Ya'ni uyga mehmon kelishidan ogohlantirib, ko'rpachan ni toza tutish zarurligini eslatadi. Ushbu qo'shiqdagi takrorlar ma'noni aniqlashtirish va qarg'a obrazi tabiatini ochish barobarida qo'shiq matnining ohangdorligi, o'ynoqi ritmikasini, bolalar tomonidan engil o'zlashtirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbek bolalar folklorida qo'shiqlar behad ko'p va rang-barang, ularning ijro o'rni, estetik-tarbiyaviy mohiyati jihatidan farqlanishini Z.Umurzoqova quyidagi guruhlarga bo'lish orqali e'tirof etgan:

- o'yinga chorlovchi qo'shiqlar;
- ma'naviy qo'shiqlar;
- turli qo'shiqlar;
- hazil-mutoyiba qo'shiqlar.

Ushbu tasnidagi "ma'naviy qo'shiqlar" hamda "turli qo'shiqlar" degan tushunchalar keng va mavhum berilgan. Chunki har bir qo'shiq turi ma'naviyatni boyitishga xizmat qilishi nuqtai nazaridan bunday nomlanishi mumkin. Aytish joizki, bolalar qo'shiqlarining bir turi marosim qo'shiqlaridir. "Boychechak" ular orasida bolalarning bahor mavsumi bilan bog'liq eng qadimiy va an'anaviy qo'shiqlaridan biridir. Bolalar Navro'z elchisi sifatida erta bahorda dala va qirlarda boychechakni ko'rishlari bilanoq, undan guldastalar yasaganlar, tol xivichlarini shodalab, boshlariga gulchambar qilib kiyganlar. So'ngra hovlima-hovli yurib, "Boychechak" qo'shig'ini kuylab, gul ulashib, bahor kelganidan xabar bergenlar. Bolalarning biri to'rtliklar shaklida mantiqan birlashgan "Boychechak" qo'shig'ini yakkaxon sifatida kuylagan, qolganlari naqoratni xor bo'lib ijro etganlar.

Boychechagim boylandi,
Qozon to'la ayrondi.
Ayroningdan bermasang,

Qozonlaring vayrondi.
 Qattiq erdan qatalab chiqqan boychechak,
 Yumshoq erdan yugurib chiqqan boychechak.
 Boychechakni tutdilar,
 Tut yog'ochga osdilar,
 Qilich minan chopdilar,
 Baxmal minan yopdilar.
 Boychechagim bolasi,
 Qulog'ida donasi.
 Donasini olay desam,
 Yugurib chiqdi onasi.

Bola hayotida qo'shiq, o'yin, mashg'ulotlarida tanaffus bo'lmaydi. Yuqorida keltirganimiz ayrim marosim qo'shiqlari bolalar ijodi daryosining irmog'i, xolos. G'ani Jahongirov ularni xususiyatlaridan kelib chiqib afsonaviy qo'shiqlar, voqeaband bola termalari deb nomlaydi[2].

Bolalarning jo'shinqinligi, izlanuvchanligi, sabrsizligi va harakatchanligi bilan to'lib-toshgan bunday qo'shiqlar ularning sermahsul fantaziysi bilan ham yo'g'irilgan.

Qo'shiq tugagach, boychechakchilarga sovg'a-salomlar berilgan, bolalar sovg'alarni o'zaro bo'lib olishgan yoki hammalari birgalikda baham ko'rishgan. Qo'shiqda ta'riflangan boychechak erta bahorda ochiladigan gulgina emas, umumlashma darajasiga ko'tarilgan ramziy obraz ham. Unda murg'akkina bolalik obrazi namoyon bo'ladi. Xalq bolani erta bahorning ilk guli timsolida ko'rgan, bola shu gulday nozik, yoqimli navnihol va, chindan ham, insoniyat bahorining g'unchasi tarzida e'zozlangan.

Mohiyatan tabiat hodisalari bilan bog'liq bo'lib, ibridoiy animistik qarashlar zamirida vujudga kelgan bolalarning mavsum-marosim qo'shiqlaridan biri **yalinchoqlar** hisoblanadi. Davrlar o'tishi bilan animistik e'tiqodlar so'na boshlagan. Natijada unga daxldor marosimlar ham so'ngan. Biroq marosimga oid qo'shiqlar, jumladan, quyoshga, oyga, kamalakka, yulduzlarga, shamolga, yomg'irga va boshqa tabiat hodisalariga yalinishdan iborat animistik mohiyatini yo'qotmagan holda saqlanib qolgan.

Bunday qo'shiqlarda tabiat kuchlariga murojaat qilishni bolalar kattalarga taqlidan o'rghanishgan. Ulardan keng tarqalgani shamolga yalinish qo'shig'idir. Surxon bolalari yozda xirmon ustida shunday deyishadi:

Shamol, ol,
 Bag'ring kamol.
 Cho'loq ketmoningni olib qoch.

Erta bahorda bolalar varrak uchirayotib, yana shamolni chorlash maqsadida unga quyidagicha murojaat qilishadi:

Shamol, shamol,
 Bag'ring kamol.
 Varragimni balandroq olib chiq!

Bolalar repertuarida g'oyat teng tarqalgan va xilma-xil variantlarga ega bo'lgan "Oftob chiqdi olamga" yalinchog'i, odatda, qish oxirlab, quyosh bulutni yorib ko'rigan chog'larda ijro etiladi. Bolalar quyoshni ko'rishlari zahoti qator tizilishib, sakrab-sakrab bu qo'shiqni birgalikda kuylaganlar.

Oftob chiqdi olamga,
 Yugurib bordim xolamga.
 – Xola, xola, kulcha ber,
 Xolam dedi: – O'tin ter.
 O'tin terdim bir quchoq,
 Kulcha yopdi bir o'choq.
 O'g'liga berdi yog'li kulcha,
 Menga kuyuk-dog'li kulcha. [5]

Qo'shiqda hayotiy manzaralar, voqealar ifodalangan. Oftobning chiqishidan quvonish, bolaning xolasidan kulcha so'rashi, xolasining unga o'tin terib kelishni buyurishi, bolaning quchoqlab o'tin terib kelishi, shu o'tin yoqilib kulcha pishirilishi, ammo buning evaziga bolaga chiroyli pishgan yog'li kulcha emas, kuyuk-dog'li kulcha berib kansitilgani, unga nohaq, adolatsiz munosabatda bo'lingani kabi hayotiy manzaralar ifoda etilgan. Shu asosda qo'shiqning hayotiy-tabiyy marom olishi ta'minlangan, voqealarning izchil, ishonarli yo'nalishi belgilangan. Unda bolalarcha soddalik, samimiylilik tusi ustuvor.

Bolalar qo'shig'ida doimo hazil-huzul, fikrda o'zgacha burilish olish holatlari ham uchraydi. Bu ko'plab an'anaviy qo'shiqlarda ko'zga tashlanadi. Ushbu qo'shiqda ham xulosa o'zgachalik kasb etgan, shuncha mehnat, shuncha xushchaqchaq kayfiyat qo'shiq yakunida buzilish olgan. Bu xolaning notantiligi tufayli kelib chiqqan. Ushbu holat qo'shiqda achchiq kinoyaga aylangan. Qo'shiqda noxolislik qoralangan. Bolaning bundan alamli hayron-u lol holati tinglovchilarining ko'z oldiga kelib, kinoyali kulgiga sabab bo'lgan.

Hukmlagichlar ham qadim ajdodlarimizning totemistik e'tiqodlariga daxldor marosim qo'shiqlarining davrlar o'tishi bilan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot ta'sirida o'zgarishlarga uchrab, asta-sekin bolalar repertuariga o'tib, bolalarcha mushohadadorlik asosida qaytadan sayqallanib, yangi motiv va obrazlar hisobiga to'lishib, ularning mavsum-marosim poeziyasida barqarorlashgan namunalar sanaladi. Totemistik e'tiqod qoldiqlari bolalarning hasharotlar bilan bog'liq hukmlagichlarida ravshanroq ko'rindi. Chunonchi, bolalar orasida beshiktervatni ko'rganda, uning vositasida fol ochish an'anasi mavjud.

Beshiktervat, Beshiktervat,
 Salima xolam nima tug'adi?

Beshiktervat o'ng oyog'ini ko'tarsa – o'g'il, chap oyog'ini ko'tarsa – qiz tug'ilishiga yo'yishgan.

Erta pishar xalili (chillaki) uzum xol tashlaganda xonqizi, tilla qo'ng'iz kabi hashoratlar ko'payadi. Shunda bolalar xalilipazak, hasanak nomlari bilan ham yuritiladigan xonqiziga qarab hukmlagichlar aytishadi. Sirtida nuqtasimon oq yoki qora xolchalari bo'lgani uchun unga xol deb ham murojaat qilinadi:

Xol, xol, xol,
 Otang o'ldi,
 Onang o'ldi,
 Borib xabar
 Olmaysanmi?

Afsonalarga ko'ra, xon qizi aslida podsho qizi bo'lgan, ammo qashshoq cho'ponni sevgani uchun g'azablangan otasi unga: "Iloyi qumursqaga aylan!" deya qarg'agan emish. Qarg'ish tutib, u hasharotga aylanganmish. Xonqizi deyilishi shundan qolganligi aytildi. Tillaqo'ng'iz,

kaltakesak, ilonga murojaat tarzidagi hukmlagichlarda ham totemistik qarashlarning izlari saqlangan. Qarg'a, musicha, bedana, to'rg'ay, qaldirg'och, laylak va boshqa qushlarga oid hukmlagichlarning ma'lum qismida totemizm ta'siri bir qadar sezilsa-da, taqlidiy so'zlar vositasida to'qilgan qismida bu ta'sir tamoman so'ngan. Taqlidiy so'zlar hukmlagichlarda asosiy poetik vazifa bajaradi.

– Qurbaqajon vaq-vaqa,
Ko'zing nega bundaqa ?
– Bugun o'sma qo'ymadim,
Shuning uchun shundaqa.

Bu parchada bezanish, oro berish holatining ayollar turmushidagi o'rni va ahamiyatiga ishora seziladi. Demak, pardoz orqali chiroy ochish ham ko'rimsizlikni yashirishga xizmat qilishi mumkinligi eslatilgan.

Bunda o'ziga qarab, taranib va pardozlanib, toza-ozoda yurish tartibi jihatidan qo'shiq tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ushbu qo'shiqning quyidagi variantida bolalarning ortiqcha suvda cho'milishi aft-angoriga ta'sir qilishi mumkinligi va bundan ular tiyilishi, har ishni me'yorida bajarish lozimligi uqtirilmoqda. Mana shu ogohlantirishda qo'shiqning tarbiyaviy ahamiyati aks etmoqda.

–Vaqir-buqur qurbaqa,
Nega afting bundaqa?
–Suvda ko'p cho'milganimdan
Bo'ldi aftim shundaqa.

Shunday qilib, taqlidiy so'zlar yordamida yaratilgan hukmlagichlarning ko'pchilligi totemizm aqidalaridan xoli bo'lib, bevosita bolalar dunyoqarashini, voqelikka hayratomuz munosabatlarini, idrok va zavqlaridagi o'ziga xosliklarini aks ettiradi[6].

Umuman, yalinchonqlar bolalarning tabiat bilan yuzma-yuz muloqotda bo'lishlariga yo'l ochgan bo'lsa, hukmlagichlar hayvonot olami bilan munosabatlarini ta'minlagan, shu asosda bolalarda tabiatga, hayotga mehr-muhabbatni shakllantiruvchi estetik-axloqiy munosabat tarbiyalangan.

Xulosa shuki, bolalar fasllarga aloqador barcha narsa-hodisalarini: havoning musaffoligi, tabiatining chiroyi, yomg'irlarning o'ynoqiligi, kamalakning serjilo va maftunkorligini bemalol o'z tasavvurida umumlashtira oladi.

Адабиётлар / Литература / References:

1. Фани Жаҳонгиров. Ўзбек болалар фолклори. – Тошкент, 1975. – Б.79.[2]
2. Бойсун тумани Хўжабулғон маҳалласида яшовчи Омонов Ашурдан ёзиб олинди.[1]
3. Ангорлик Тожихол момодан ёзиб олинган.[3]
4. Бойсун туманида Бошработ маҳалласида яшовчи Солия момодан ёзиб олинди.[4]
5. Деновлик Нормурод бободан ёзиб олинди.[5]
6. Ўзбек халқ оғзаки поетик ижоди. – Тошкент, 1990. – Б.231.[6]

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 2 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).